

**QONUNCHILIK JARAYONI VA UNING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI
HAMDA XORIJ TAJRIBASI.**

*Toshkent davlat transport universiteti
Yurisprudensiya(xalqaro transport huquqi)
yo'nalishi talabasi
Ergasheva Xusnora*

Annotatsiya: ushbu maqolada qonunchilik jarayoni va uning konstitutsiyaviy maqomi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimining asosiy tamoyillari va tartib-taomillari bayon qilinib, AQSh, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslangan. Shuningdek, qonunchilik jarayonida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va O'zbekistonda olib borilayotgan huquqiy islohotlarning yangi tendensiyalari yoritilgan. Mazkur tahlillar qonunchilik jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qonunchilik jarayoni, konstitutsiyaviy maqom, normativ-huquqiy hujjatlar, parlament, qonun loyihasi, inson omili, elektron hujjatlar, huquqiy islohotlar, xalqaro tajriba, qonun tashabbusi.

Kirish

Qonunchilik jarayoni inson omiliga bevosita bog'liq bo'lib, u fuqarolar, davlat xizmatchilari va qonun chiqaruvchi organlarning faoliyatidan kelib chiqadi. Davlat boshqaruvi tizimidagi samaradorlik qonunchilik jarayoni orqali belgilanadi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchilik jarayoni hamda xorijiy mamlakatlarning tajribalari tahlil qilinadi.

Qonunchilik jarayoni- bu inson omili asosida shakllanuvchi, davlat tomonidan tartibga solinadigan murakkab jarayon bo'lib, unda qonun loyihibarining ishlab chiqilishi, muhokama qilinishi va qabul qilinishi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida bu jarayon Konstitutsiyaning 102–104-moddalarida¹ belgilangan bo'lib, qonun chiqarish vakolati Oliy Majlisga berilgan. Shuningdek, qonun tashabbusi huquqi Prezident, deputatlar, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga tegishlidir.

Xorijiy mamlakatlar qonunchilik jarayoni ham alohida korinishga ega ya'ni bulardan

AQShda qonunchilik jarayoni Kongress tomonidan amalga oshiriladi. Kongress ikki palatadan- Senat va Vakillar palatasidan iborat bo'lib, har bir palata o'zining

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145>

qonunchilik tartibiga ega. Qonun loyihasi avval muhokama qilinib, so‘ngra tegishli qo‘mitalarda ko‘rib chiqiladi. Kongressning ikkala palatasi tomonidan ma’qullangan hujjat Prezidentga yuboriladi, u uni imzolash yoki veto qo‘yish huquqiga ega. Agar Prezident veto qo‘ysa, Kongress ikki uch qism ovoz bilan uni bekor qilishi mumkin. Ushbu jarayonda fuqarolar va manfaatdor guruhlarning faol ishtiroki inson omilining muhimligini ko‘rsatadi.²

Germaniyada qonunchilik jarayoni Bundestag (quyi palata) va Bundesrat (yuqori palata) tomonidan amalga oshiriladi. Qonun loyihalari avval Bundestagga taqdim etilib, u yerda turli bosqichlarda muhokama qilinadi. Bundesrat tomonidan ma’qullangan hujjatlar Federal Prezident tomonidan imzolanadi va kuchga kiradi. Germaniya qonunchiligidagi inson omili, ayniqsa, jamoatchilik muhokamalari va manfaatdor tomonlarning ishtiroki orqali kuchaytiriladi.³

Buyuk Britaniyada qonunchilik jarayoni Parlament tomonidan amalga oshiriladi. U ikki palatadan- Lordlar palatasi va Jamoatlar palatasidan iborat. Qonun loyihasi bir necha bosqichdan o‘tadi: birinchi o‘qish, ikkinchi o‘qish, qo‘mita bosqichi, hisoboti va uchinchi o‘qish. Qonun loyihasi qabul qilinganidan so‘ng, u monarx tomonidan ma’qullanadi va kuchga kiradi. Buyuk Britaniya qonunchilik tizimi inson omiliga asoslangan bo‘lib, manfaatdor tomonlarning taklif va tavsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.⁴

Respublikamizda qonunchilik jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar muhim rol o‘ynamoqda. Elektron hujjatlar, onlayn muhokamalar va raqamli islohotlar qonunchilik jarayonining shaffofligini oshiradi va keng jamoatchilik ishtirokini ta’minalashda samarali usullardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Qonunchilik jarayonini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda qonun loyihalaring elektron formatda taqdim etilishi ularning tahlil qilinishini tezlashtirish va hujjatlar aylanishini soddalashtirishda, online muhokamalarni amalga oshirish orqali parlament yig‘ilishlarida fuqarolar va ekspertlarning masofaviy ishtiroki qonunlar sifatini oshirishda samarali usul sifatida ko‘rilmoxda. Bundan tashaqari raqamli islohotlar, elektron qonunchilik bazalari va huquqiy axborot tizimlari fuqarolarning qonun hujjatlaridan xabardor bo‘lishini ta’minlab kelmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qonunchilik jarayoni sezilarli darajada takomillashtirildi. Ushbu islohotlar qonunchilik tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Fuqarolarning huquqlarini kengaytirish va biznes muhitini yaxshilashga yo‘naltirilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy monitoring tizimi hamda qonunlarning ijrosi va samaradorligini baholash uchun maxsus mexanizmlar joriy etilmoqda. Jamoatchilik ishtirokining kengayishi orqali

² <https://www.amerikaovozi.com/a/us-lawmaking/4178606.html>

³ <http://www.bundesregierung.de/>

⁴ <http://www.gov.uk/>

qonun loyihalarini ochiq muhokama qilish imkoniyatlari kengaytirilib, fuqarolar va ekspertlarning fikrlari inobatga olingan holda qonun loyihalari ishlab chiqilmoqda. my regulation.gov.uz orqali muhokamaga qo'yilib fuqarolar o'rtasida takliflar eshitirilmoqda va shu orqali ovoz berish yo'li bilan qabul qilinishi yoki rad etilishi to'g'risida qarorlar qabul qilinmoqda.

Xulosa

Qonunchilik jarayoni inson omiliga bevosita bog'liq bo'lib, uning samaradorligi fuqarolar ishtirokiga va huquqiy ongi darajasiga bog'liq. O'zbekiston qonunchilik tizimi konstitutsiyaviy asosga ega bo'lib, demokratik tamoyillarga asoslanadi. Shu bilan birga, xorijiy tajribani o'rganish va inson omiliga ko'proq e'tibor qaratish orqali qonunchilik jarayonini yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahriri).
2. "O'zbekiston Respublikasining Qonun chiqarish jarayoni"- Oliy Majlis nashriyoti, 2023.
3. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2024.
4. "Huquqiy islohotlar va qonunchilik tizimi"- T. Jo'rayev, 2023.
5. Germaniya Konstitutsiyasi va qonun chiqarish tizimi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami, 2023.
6. AQSh Kongressining qonun qabul qilish jarayoni haqidagi rasmiy nashrlar, 2024.
7. Buyuk Britaniya parlamenti qonunchilik jarayoni bo'yicha rasmiy hujjatlar, 2024.